XALQ DEPUTATLARI YAKKABOG’ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 6-avgust VII-12-94-4-68-K/25 Yakkabog’ tumani

Yakkabog‘ tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga asosan, tuman hokimligining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashrifi davomida bergan topshiriqlari ijrosini ta’minlash, tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa tadbirlarga tuman mahalliy budjetining 2025-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha daromadlar rejasining ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Yakkabog‘ tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman hokimligining tuman mahalliy budjetining 2025-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha daromadlar rejasining ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2025-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha daromadlar rejasining ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashrifi davomida bergan topshiriqlari ijrosini ta’minlash, tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish shuningdek, kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa tadbirlarga ajratiladigan mablag‘lar 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Latipov) hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (Sh.Eshmatov)lar;

belgilangan muddatlarda mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash maqsadida tegishliligi bo‘yicha mablag‘larni moliyalashtirish choralarini ko‘rish,

O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablariga asosan tuman mahalliy budjetining xarajatlar qismiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish,

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganishlar o‘tkazish, o‘tkazilgan o‘rganishlar natijalariga ko‘ra,

ishlatilmasdan qolgan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi, tegishli tashkilot rahbarlari va mas’ul xodimlariga,
mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan mablag‘lardan o‘z vaqtida belgilangan tartiblar asosida maqsadga muvofiq foydalansinlar.

5. Tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi boshlig‘i (J.Rajabov) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yakkabog‘ tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Jo‘raev hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Latipovlar zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi

YULDASHEV
DILMUROD
MAXMADALIYEVICH

Xalq deputatlari Yakkabog’ tumani
Kengashining
2025-yil 6-avgustdagi
VII-12-94-4-68-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Yakkabog‘ tuman mahalliy budjetining 2025-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha daromadlar rejasining ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

mln.so‘mda

№	Mablag‘ ajratiladigan tashkilot nomi	Tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘lar miqdori
1	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasiga	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi maxsus texnikalarga avtoshinalar sotib olish xarajatlariga	40.0
2	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasiga	Yoqilg‘i moylash mahsulotlari sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarga	100.0
3	Tuman hokimligiga	Tuman hokimligi qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazish yagona elektron-“E-Qaror” va “E-Kengash” axborot tizimiga abonentlik to‘lovi xarajatlariga	27.6
4	Tuman hokimligiga	Internet xizmatidan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	14.6
5	Tuman hokimligiga	EDO.IJRO.UZ, E-hrm.argos.uz hamda E-xuquqshunos elektron tizimidan foydalanish uchun abonent to‘lovi xarajatlariga	4.8
		UMUMIY JAMI:	**187.0**